

Date: 23<sup>rd</sup> February-2026

INSON HUQUQLARI VA UNING HIMOYASI HOZIRGI VAQTDA  
O'ZBEKISTONDA

Jo'raboyev Azizbek Yoqubjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti 2-bosqich huquq talim yonalishi magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson huquqlari va erkinliklarining mazmun-mohiyati, ularni himoya qilish va kafolatlash tizimi yoritilgan. Inson huquqlari - har bir shaxsning tug'ma va ajralmas huquqlari bo'lib, demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir. Maqolada konstitutsiyaviy huquqlar, xalqaro huquqiy normalar va milliy qonunchilik doirasida inson huquqlarining kafolatlari, ularning amaliyotdagi ifodasi, hamda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining ushbu jarayondagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi islohotlar va xalqaro hamkorlik yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** inson huquqlari, erkinliklar, huquqiy kafolatlar, konstitutsiya, xalqaro huquq, demokratik jamiyat, fuqarolik jamiyati, inson huquqlari himoyasi, islohotlar.

**Abstract.** This article discusses the essence of human rights and freedoms, the system of their protection and guarantee. Human rights are the innate and inalienable rights of every person and are one of the basic principles of a democratic society. The article analyzes the guarantees of human rights within the framework of constitutional rights, international legal norms and national legislation, their expression in practice, as well as the role of state and civil society institutions in this process. Special attention is also paid to reforms in the field of human rights in the Republic of Uzbekistan and areas of international cooperation.

**Keywords:** human rights, freedoms, legal guarantees, constitution, international law, democratic society, civil society, protection of human rights, reforms.

**Kirish:** Hozirgi O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Inson huquqlari — bu har bir shaxs tug'ilganidan boshlab ega bo'ladigan, davlat tomonidan tan olinadigan va himoya qilinadigan huquq va erkinliklar majmuasidir. Ular jamiyatda adolat, tenglik va qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson-ijtimoiy mavjudod, u muayyan ijtimoiy muhitda yashaydi, oila, mehnat jamoasining a'zosi, ma'lum ijtimoiy guruh, millatning vakili hisoblanadi.

Fuqarolik - shaxsning muayyan davlatga mansubligi bo'lib, davlat unga nisbatan o'z huquqini o'tkazadi va uni konstitutsiyada ko'rsatgan fuqarolik huquqlari va burchlari bilan ta'minlaydi, uning huquqlarini ushbu davlat ichida hamda tashqarisida himoya qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida belgilangan. Konstitutsiyaning asosiy tamoyillariga ko'ra, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldir. So'nggi yillarda Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar inson qadr-qimmatini yanada yuksaltirish, fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan.



Date: 23<sup>rd</sup> February-2026

Mamlakatimizda yashash huquqi, ta'lim olish huquqi, mehnat qilish huquqi, so'z va fikr erkinligi, sud orqali himoyalaniish huquqi kabi asosiy inson huquqlari qonuniy jihatdan kafolatlangan. Ayniqsa, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida har bir fuqaroning sifatli ta'lim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Mehnat munosabatlarida ham adolatli sharoitlar yaratish, majburiy va bolalar mehnatiga barham berish borasida muhim choralar ko'rilmogda.

So'nggi yillarda sud-huquq tizimini isloh qilish inson huquqlarini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi. Sudlarning mustaqilligini oshirish, advokatura institutini rivojlantirish, fuqarolarning huquqiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish bu boradagi ijobiy natijalardir. Shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha vakil — Ombudsman instituti faoliyati kuchaytirilib, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish mexanizmlari takomillashtirildi.

O'zbekiston xalqaro maydonda ham inson huquqlari sohasida faol ishtirok etib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy konvensiyalariga qo'shilgan. Bu esa milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining roli asta-sekin ortib bormoqda.

Shu bilan birga, inson huquqlarini ta'minlash jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Aholining huquqiy savodxonligini oshirish, qonunlarning amalda to'liq ijro etilishini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir.

Shaxsning huquqiy holati uning jamiyatdagi huquq va burchlarini belgilaydigan butun ijtimoiy normalar (masalan, urf-odat, odob, an'analar, jamoat normalari va huquqiy norma-lar va boshhalar) bilan belgilanadi. Shaxsning huquqiy holati bittagina huquqiy tarmoqning emas, butun Respublikadagi huquq tarmoqlarining normalari bilan o'rganiladi. Bu jarayonda Konstitutsiya asosiy o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasidagi shaxsning huquqiy holati - bu kishining O'zbekiston Respublikasi huquq normalari bilan belilangan holati, uning jamiyatdagi o'rni.

1. Davlat bilan alohida shaxsning huquqiy aloqasi shaxsning shu davlatga mansubligi bilan belgilanadi.

2. Shaxsning umumiy huquqiy layoqatidir.

3. Fuqarolarning Respublika Konstitutsiyasi va qonunlari bilan belgilab qo'yilgan asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlaridir.

4. Fuqarolar huquqiy holatining printsiplari.

Bu printsiplarga: insonparvarlik, jamiyat manfaati bilan shaxs manfaatlarining mos kelishi, guruh, partiya va davlat manfaati inson manfaatidan yuqori qo'ymaslik, fuqarolar huquq va majburiyatlarining umumiyliigi, birligi va tengligi kabilar kiradi.

Shaxs huquqiy holatining to'liqligi va haqiqiyliigini bildiruvchi tarkibiy qismi sifatida, shaxslarning konstitutsiyada ko'rsatilgan huquq va erkinliklarining amalga oshirish mexanizmi borligi va ularning kafolatlarini ko'rsatib qo'yish mumkin.

Shaxs huquqiy holatlarining prinsiplari. Shaxslar huquqiy holatining quyidagi printsiplari mavjud:



Date: 23<sup>rd</sup> February-2026

- insonparvarlik;
- jamiyat manfaati bilan shaxslar manfaatining munosib tarzda olib borilishi;
- huquq va majburiyatlarning umumiyliigi;
- huquq v majburiyatning tengligi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekistonni davlat sifatida dunyodagi eng demokratik mamlakatlar darajasiga ko'tardi. Chunki insonni ulug'lash, uni kim bo'lishidan qat'iy nazar qonun oldida tengligini ta'minlash hamda uning haq va huquqini qo'riqlash faqat demokratik davlatlarga xosdir.

Har bir mamlakatda inson huquqlariga va asosiy erkinliklariga qay tarzda rioya etilganligiga harab, shu mamlakatning jahon miqyosidagi obro'si va uning boshqa davlatlar bilan munosabatlari belgilanadi. 1948-yil BMT inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasini qabul qildi. Bu Deklaratsiyadan keyin yana uch hujjat, ya'ni:

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt;

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt;

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro faktga fakultativ protokol qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, inson huquqi masalalariga oid 100 dan ortiq qonunlar qabul qildi. Respublika Prezidenti esa shu davr ichida inson huquqi masalalariga bag'ishlangan oltmishdan ortiq farmon qabul qildi.

Respublikada inson huquqi bilan shug'ullanadigan bir qancha davlat organlari va institutlari faoliyat ko'rsatmoqda. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili, Inson huquqi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining amaldagi qonunlar monitoringi instituti va Inson huquqi himoyasi bilan shug'ullanuvchi bir qancha xukumatga harashli bo'lmagan jamoat tashkilotlari shular jumlasidandir.

Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasida bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lishi qoidasi Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi moddalariga to'la-to'kis mos keladi. Masalan, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 1-moddasida quyidagi so'zlar bitilgan:

"Barcha odamlar erkin, hadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tuqiladilar. Ular aql va vijdon sohibidirlar va bir-birlariga birodarlarcha muomala qilishlari zarur". Darhaqiqat, mamlakatda barcha fuqarolar bir-birlari bilan do'stona munosabatda bo'lishlari va tinch-totuv yashashlarining zaminida inson huquqlari, birinchi navbatda, konstitutsion huquqda himoya qilinishi zarur.

Ushbu qoidaning nahadar to'g'ri va qayotan zarurligi ayrim davlatlarda hozirgi kunlarda ham inson huquqlari, erkinlik-larini mensimaslik va oyoq osti qilish oqibatida begunoq kishilarning qoni to'kilayotganligi hamda butun bir mamlakat va xalqlarning milliy ozodlik harakatlari yaxshiylarcha bostirilayotgani to'g'risidagi faktlarni olganda yana ham ayon bo'ladi.

Yaqin o'tmishda, sobiq ittifoq sharoitida qonunlarda insonlarni, millatlarni, xalqlarni tengliklari qayd qilingan bo'lsada, amalda ular o'zlarining sinfiy, partiyaviy qabul



**Date: 23<sup>rd</sup> February-2026**

belgilariga harab farqlanar edilar. Xalqlar, millatlar o'rtasida ishonchsizlik, tengsizlik kelib chiqdi. Markazlashgan davlatning parchalanib ketishiga sabab bo'ldi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aniq va ravshan qilib inson huquq va erkinliklarining tengligini belgilab qo'yilishi mamlakatda odamlar o'rtasida biror bir ayrimachilikka, ya'ni ular o'rtasida irqiy, milliy, jinsiy, diniy nizolarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaydi.

Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklarni biror bir shaxs yoki tashkilot tomonidan buzilishiga, cheklab qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ularning daxlsizligi qonun bilan qo'riqlanadi. Masalan, sha'niga ta'sir qiladigan harakatlar uchun tegishli tartibda tegishli moddalarda jinoiy javobgarliklar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishishi bilan fuqarolik instituti mazmunan tubdan yangi ma'no va mustaqil ahamiyat kasb etdi. Endilikda fuqarolik davlatchiligimizning muhim ajralmas belgisidir. U shaxsning davlatga mansubligini, unga daxldorligini yuridik jihatdan mustashkamlaydi, shuningdek davlat o'z hokimiyatini bu shaxsga o'tkazadi va uni Konstitutsiyada mustahkamlangan huquq va burchlar bilan ta'minlaydi.

Fuqarolik - bu shaxs bilan davlat o'rtasidagi barqaror va doimiy siyosiy-huquqiy aloqa bo'lib, bunda ularning o'zaro huquq, burch va majburiyatlarida o'z ifodasini topadi. Bunday alohalar inson va fuqarolarning hadr-qimmati, asosiy huquq va erkinliklarini tan olish hamda hurmat qilishga asoslanadi. Shu o' rinda ta'kidlash lozimki, fuqaro bilan davlatning o'zaro majburiyatga egaligi printsipli respublika konstitutsiyaviy qonunchiligida birinchi marotaba mustahkamlanib qo'yildi. Bu siyosiy tizimning demokratchiligi va xalqchilligini o'ta muhim ko'rsatkichidir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi deganda, faqatgina uning hududida yashashi yoki uning hokimiyatiga bo'ysunishi, huquq va burchlar bilan ta'minlanishigina emas, balki shaxs bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida o'rnatilgan alohida siyosiy-

huquqiy alohalar va munosabatlar tushuniladi. Umuman olganda, u shaxsning davlat bilan munosabatlarini yuridik jihatdan belgilab qo'yadi. Fuqarolik - bu shaxsning huquqiy holatidir. Fuqarolik-bu shaxs bilan davlatning barqaror va doimiy siyosiy-huquqiy munosabati bo'lib, ularning o'zaro huquqlari, burchlari va javobgarliklarini ifodalaydi. Konstitutsiya O'zbekistonning butun hududida yagona fuqarolik o'rnatadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, O'zbekiston Oliy Kengashi 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida qonun qabul qildi. qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublik, fuqarolikka olish, uni to'xtatish, ota-onalarning fuqaroligi o'rnatganda bolalarning fuqaroligini aniqlash kabi O'zbekiston fuqaroligiga doir masalalar ko'rsatilgan.

Davlatimizning eng muhim maqsadlaridan biri, respublika siyosiy tizimining mohiyati - davlat bilan fuqaro o'rtasidagi munosabatlarda inson oliy ijtimoiy hadriyat ekanligining joriy etilishidadir. O'zbekiston davlatining, uning barcha idoralarining faoliyati yuqorida zikr etilgan printsiptni imkon hadar to'laroq va keng ko'lamda amalga oshirishga buysundirilgan.



**Date: 23<sup>rd</sup> February-2026**

Chet el fuqarolari ikki toifaga bo'linadilar: O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy ravishda istiqomat qiluvchi va vaqtincha yashab turuvchilar. Bu ikki toifaga mansub bo'lgan chet el fuqarolarining huquqiy holatida ayrim farqlar bor.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxsning huquqiy ta'rifi O'zbekiston Respublikasi fuqarolik to'g'risidagi qonunning 11-moddasida bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasida yashovchi muxojirlarga, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ularning shaxsini va yashash huquqlarini bildiradigan maxsus hujjatlar - guvohnomalar beri-ladi. Bunday hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1994- yil 23-dekabrda tasdiqlagan «Xorijiy shaxslarga, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga beriladigan O'zbekiston Respublikasida yashash uchun guvohnoma va fuqaroligi bo'lmagan shaxs guvohnomasi to'g'risidagi Nizom» asosida beriladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Джон Локк. Два трактата о правлении. М.: СОЦИУМ 2020. - С. 480.
2. Ибратов Б. Тадбиркорлик ҳукуки. Дарслик. - Т.: "Молия", 2001. 268 б.
3. Ильин В.А. Конституционное право России. М.: Эксмо, 2022. - С. 448.
4. Конституционное право: учебник для бакалавров / отв. ред. В. И. Фадеев. - Москва: Проспект, 2015. - С. 584.

